QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASI
STATISTIKA BOSHQARMASI

# QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASINING SANOAT ISHLAB CHIQARISHI

***2021- YIL YANVAR-OKTABR***
***(DASTLABKI MA’LUMOT)***



## Qoraqalpog‘iston Respublikasining sanoat ishlab chiqarishi

*(2021- yil yanvar-oktabr)*

Dastlabki ma’lumotlar bo‘yicha 2021- yilning yanvar-oktabr oylarida respublika korxonalari tomonidan 13130,9 mlrd. so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo‘lib, 2020- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* 105,5 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to‘g‘ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi (85,2 %)ni tashkil etdi.




***B***–*Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash,* ***C****-Ishlab chiqaradigan sanoat* ***D****-Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash,* ***E****-Suv bilan ta‘minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish.*

**Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha sanoat ishlab chiqarishi, FHI*** *% da*




Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi o‘sishining asosiy omili bo‘lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning – 9,6 % ga hamda elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalashning – 40,6 % ga o‘sishi kuzatildi.

Shuningdek, tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatida 91,0 % ga, suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilishda – 13,8 % ga pasayishi kuzatildi.

***Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi** *ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o‘zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko‘rsatkichdir.*

## Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati




Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2021- yilning yanvar-oktabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 101,2 mlrd. so‘mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,8 % ini tashkil etdi.

### Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi, *% da*




## Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

### O‘tgan yilning mos davriga nisbatan, % da



## Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2020- yil yanvar-oktabr | 2021- yil yanvar-oktabr | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| Ohah tosh, ming t. | 203,0 | 129,4 | -73,6 |
| Tabiiy gaz, mln. kub.m. | 2250,3 | 1653,0 | -597,3 |
| Gaz kondensati, ming t. | 91,6 | 74,3 | -17,3 |

## Ishlab chiqaradigan sanoat




2021- yilning yanvar-oktabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 11182,3 mlrd. so‘mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 85,2 % ini tashkil etdi.

**Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi**, ***% da***



O‘tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 1,2 % ni (2020- yilning yanvar-oktabr oylarida – 1,3 %), o‘rta-yuqori texnologiyali – 63,6 % (63,1 %), o‘rta-quyi texnologiyali – 4,5 % (4,6 %) va quyi texnologiyalisi – 30,7 % (31,0 %) ni tashkil etdi.




## Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o‘sish sur’ati

2021- yilning yanvar-oktabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatda 3281,2 ming litr aroq (2020- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan 19,9 % ga), 11,5 ming tonna kalava ip (4,8 % ) ishlab chiqarilib, yuqori o‘sish sur’ati kuzatildi. Shuningdek, 74,0 ming tonna yumshoq bug‘doy va spelta uni (4,9 % ), 214,0 ming tonna portlandsement (11,8 %), 39,9 ming tonna paxta chigiti (26,8 %), 5,2 ming tonna tozalangan o‘simlik yog‘i (42,1 %) va 1,5 ming tonna tozalangan guruch (67,9 %) ishlab chiqarilib, 2020- yilning mos davriga nisbatan pasayishi kuzatildi.

## O‘tgan yilning mos davriga nisbatan, % da

**O‘simlik yog‘I (tozalangan)**




**Yumshoq bug‘doy va spelta uni**




**Sement**




**Aroq**




**Paxta chigiti**




**Kalava ip**




## Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2020- yil yanvar-oktabr | 2021- yil yanvar-oktabr | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| **Paxta tolasi,** ming t. | 33,9 | 25,9 | -8,0 |
| **Aroq,** *ming litr 100 % li spirt* | 2735,9 | 3281,2 | 545,3 |
| **Paxtadan yigirilgan ip,** *ming t.* | 10,9 | 11,5 | 0,6 |
| **Polietilen,** *ming t.* | 291,1 | 251,3 | -39,8 |
| **Polipropilen,** *ming t.* | 81,0 | 71,4 | -9,6 |

## Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

*(yanvar-oktabr oylarida)*

2020- yilning yanvar-oktabr oylari yakunlariga ko‘ra kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 54,0 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 106,4 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2021- yilning yanvar-oktabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 53,6 % ni, fizik hajm indeksi 10,6 % ga oshdi, ishlab chiqarish hajmi esa 7040,9 mlrd. so‘mni tashkil etdi.






## Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish

*(yanvar-oktabr oylarida)*

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2020- yilning yanvar-oktabr oylarida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 3,3 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 3,9 % ga oshgan bo‘lsa, 2021- yilning yanvar-oktabr oylari yakunlariga ko‘ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 2,7 % ni tashkil etdi, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 2,0 % ga kamaydi va ishlab chiqarish hajmi 354,4 mlrd. so‘mni tashkil etdi.





## Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

*(yanvar- oktabr oylarida)*

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2020- yilning yanvar-oktabr oylarida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 13,2 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 107,7 % ni tashkil etgan bo‘lsa, 2021- yilning yanvar-oktabr oylari ya-kunlariga ko‘ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 11,9 % ni tashkil etgan, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 2,3 % ga oshdi va ishlab chiqarish hajmi 1568,4 mlrd. so‘mni tashkil etdi.



***FHI % da***




## Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

*(yanvar-oktabr oylarida)*

***FHI % da***






Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2020- yilning yanvar-oktabr oylarida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 1,0 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 27,8 % ga kamaygan bo‘lsa, 2021- yilning yanvar-oktabr oylari yakunlariga ko‘ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqa-rishning ulushi 1,1 % ni tashkil etdi, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 115,2 % ni va ishlab chiqarish hajmi 141,6 mlrd. so‘mni tashkil etdi.

## To‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

*(yanvar-oktabr oylarida)*

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2020- yilning yanvar-oktabr oylarida to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 10,5 % ni tashkil etgan bo‘lsa, uning fizik hajm indeksi 123,2 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2021- yilning yanvar-oktabr oylarida to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 11,0 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 17,9 % ga o‘sgan bo‘lsa, ishlab chiqarish hajmi 1449,6 mlrd. so‘mni tashkil etdi.









## Kiyim ishlab chiqarish sanoati

*(yanvar-oktabr oylarida)*









2020- yilning yanvar-oktabr oylari yakunlariga ko‘ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 1,0 % ni, fizik hajm indeksi esa 100,7 % ni tashkil etgan bo‘lsa, 2021- yilning yanvar-oktabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,7 % ni, fizik hajm indeksi 85,5 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 95,2 mlrd. so‘mni tashkil etdi.

## Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash

*yanvar-oktabr oylarida*




Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1765,3 mlrd. so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining (13,4 % ini) tashkil etdi.

2021- yilning yanvar-oktabr oylarida, sanoatning mazkur tarmog‘ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug‘ bilan ta’minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 40,6 % ga oshganligi kuzatildi.

**Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, *% da***




## Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2020- yil yanvar-oktabr | 2021- yil yanvar-oktabr | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| **Elektroenergiya,** *mln.kVt/s* | 3491,4 | 4133,1 | 641,7 |
| **Issiqlik energiyasi,** *ming gkal* | 25,0 | 44,0 | 19,0 |
| **Gazsimon yonilg‘ini quvurlar orqali taqsimlash bo‘yicha xizmatlar,** *mln. so‘m* | 59,3 | 78,5 | 19,2 |

## Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish

*yanvar-oktabr oylarida*







Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 82,1 mlrd.so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,6 % ini) tashkil etdi.

## Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, *% da*







| Sanoat mahsulotlari | 2020- yil yanvar-oktabr | 2021- yil yanvar-oktabr | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| **Oqava suvlarni yo‘qotish, transporttirovka qilish va ishlov berish bo‘yicha xizmatlar,** *mln. so‘m* | 4989,6 | 6628,2 | 1638,6 |
| **Xavfsiz chiqindilarni yig‘ish bo‘yicha xizmatlar**, *mln. so‘m* | 10039,9 | 13211,9 | 317,2 |
| **Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo‘yicha taqsimlash bo‘yicha xizmatlar,** *mln. so‘m* | 35020,7 | 53572,7 | 1855,2 |

O‘tgan yilning mos davriga nisbatan, suvga ishlov berish va suv quvurlari bo‘yicha taqsimlash bo‘yicha xizmatlar – 53,0 % ga, oqava suvlarni yo‘qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo‘yicha xizmatlar – 32,8 % ga, xavfsiz chiqindilarni yig’ish bo‘yicha xizmatlar – 31,6 % ga oshganligi kuzatildi.

## Iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 2225,3 mlrd.so‘mni tashkil etdi va 2020- yilning mos davriga nisbatan 7,8 % ga, uning jami sanoatdagi ulushi 16,9 % ni tashkil etdi.




Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari va pivo 6,1 % (2020- yil yanvar-oktabr oylarida 5,4 %) ni tashkil etdi.

Shahar va tumanlar kesimida iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining respublika jami hajmidagi eng yuqori ulushi Nukus shahriga to‘g‘ri kelib, 21,7 % ni, shuningdek, Taxiatosh tumani 12,2 % ni, To‘rtko‘l tumani 8,2 % ni, Ellikqal’a tumani 7,1 % ni, Amudaryo tumani 6,8 % ni, Beruniy tumani 6,5 % ni, Qo‘ng‘irot tumani 6,1 % ni, Xo‘jayli hamda Shumanay tumanlari 5,8 % ni, tashkil etdi.

Shuningdek, iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o‘sish sur’ati respublika o‘sish sur’ati (107,8 %) darajasidan yuqori ko‘rsatkich Kegeyli (152,7 %), Bo‘zatov (123,3 %), Chimboy (119,5 %), Taxtako‘pir (119,2 %), Amudaryo (118,9 %), To‘rtko‘l (117,6 %), Beruniy (113,7 %) hamda Ellikqal’a (110,8 %) tumanlarida qayd etildi.

## Shahar va tumanlar bo‘yicha iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati

*2021- yilning yanvar-oktabr oylarida*

| | Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|---|
| Qoraqalpog‘iston Resp. | 2225,3 | 100 | 107,8 |
| Nukus t. | 43,2 | 1,9 | 100,8 |
| Amudaryo | 151,9 | 6,8 | 118,9 |
| Taxiatosh | 270,7 | 12,2 | 109,3 |
| Beruniy | 145,4 | 6,5 | 113,7 |
| Taxtako‘pir | 99,2 | 4,5 | 119,2 |
| Bo‘zatov | 11,0 | 0,5 | 123,3 |
| To‘rtko‘l | 183,3 | 8,2 | 117,6 |
| Qonliko‘l | 27,2 | 1,2 | 103,6 |
| Xo‘jayli | 128,4 | 5,8 | 77,2 |
| Qorao‘zak | 56,6 | 2,6 | 109,3 |
| Chimboy | 118,4 | 5,3 | 119,5 |
| Kegeyli | 52,8 | 2,4 | 152,7 |
| Shumanay | 128,8 | 5,8 | 101,7 |
| Qo‘ng‘irot | 135,9 | 6,1 | 100,1 |
| Ellikqal'a | 158,3 | 7,1 | 110,8 |
| Mo‘ynoq | 31,2 | 1,4 | 101,9 |
| Nukus sh. | 483,0 | 21,7 | 105,7 |

Shahar va tumanlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining respublika jami hajmidagi eng yuqori ulushi Nukus shahriga to‘g‘ri kelib, 26,1 % ni, shuningdek, Shumanay tumani 10,6 % ni, Ellikqal’a tumani 10,3 % ni, Amudaryo tumani 9,2 % ni, To‘rtko‘l tumani 6,7 % ni, Qo‘ng‘irot tumani 6,7 % ni, Beruniy tumani 6,3 % ni hamda Xo‘jayli tumani 6,1 % ni tashkil etdi. Shuningdek, nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining respublika (114,8 %) o‘sish sur’atidan yuqori ko‘rsatkich Taxiatosh (218,2 %), Kegeyli (183,4 %), To‘rtko‘l (146,7 %), Chimboy (143,4 %), Amudaryo (138,5 %), Beruniy (136,8 %), Ellikqal’a (135,7 %), Bo‘zatov (118,8 %), Qorao‘zak (117,7 %) tumanlarida qayd etildi.

**Shahar va tumanlar bo‘yicha nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati**

*2021- yilning yanvar-oktabr oylarida*

| | Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|---|
| Qoraqalpog‘iston Resp. | 946,0 | 100 | 114,8 |
| Amudaryo | 86,8 | 9,2 | 138,5 |
| Beruniy | 59,8 | 6,3 | 136,8 |
| Bo‘zatov | 2,7 | 0,3 | 118,8 |
| Qonliko‘l | 8,7 | 0,9 | 102,2 |
| Qorao‘zak | 31,6 | 3,3 | 117,7 |
| Nukus t. | 9,8 | 1,0 | 103,6 |
| Taxiatosh | 29,8 | 3,2 | 218,2 |
| Taxtako‘pir | 17,8 | 1,9 | 127,4 |
| To‘rtko‘l | 63,8 | 6,7 | 146,7 |
| Xo‘jayli | 57,4 | 6,1 | 74,7 |
| Chimboy | 45,9 | 4,9 | 143,4 |

| Mlrd. so'm | Ulushi % da | O'sishi % da |
|---|---|---|
| 20,1 | 2,1 | 183,4 |
| Kegeyli | | |

| Mlrd. so'm | Ulushi % da | O'sishi % da |
|---|---|---|
| 100,3 | 10,6 | 102,0 |
| Shumanay | | |

| Mlrd. so'm | Ulushi % da | O'sishi % da |
|---|---|---|
| 63,3 | 6,7 | 96,2 |
| Qo'ng'irot | | |

| Mlrd. so'm | Ulushi % da | O'sishi % da |
|---|---|---|
| 97,2 | 10,3 | 135,7 |
| Ellikqal'a | | |

| Mlrd. so'm | Ulushi % da | O'sishi % da |
|---|---|---|
| 4,2 | 0,4 | 44,1 |
| Mo'ynoq | | |

| Mlrd. so'm | Ulushi % da | O'sishi % da |
|---|---|---|
| 246,8 | 26,1 | 105,4 |
| Nukus sh. | | |

Shahar va tumanlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining respublika jami hajmidagi eng yuqori ulushi Taxiatosh tumaniga to'g'ri kelib, 18,8 %, shuningdek, Nukus shahri 18,5 % ni, To'rtko'l 9,3 % ni, Beruniy 6,7 % ni, Taxtako'pir 6,4 % ni, Qo'ng'irot ni 5,7 % ni, Chimboy 5,7 % ni ham Xo'jayli 5,5 % ni tumanlari tashkil etdi.

Shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida eng yuqori ko'rsatkich Kegeyli (138,5 %), Mo'ynoq (128,5 %), Bo'zatov (124,9 %), Taxtako'pir (117,5 %), Chimboy (108,0 %), To'rtko'l (106,3 %) tumanlarida hamda (106,1 %) Nukus shahrida qayd etildi.

## Shahar va tumanlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

*2021- yilning yanvar-oktabr oylarida*

| Mlrd. so'm | Ulushi % da | O'sishi % da |
|---|---|---|
| 1279,3 | 100 | 103,1 |
| Qoraqalpog'iston Resp. | | |

| Mlrd. so'm | Ulushi % da | O'sishi % da |
|---|---|---|
| 33,4 | 2,6 | 100,1 |
| Nukus t. | | |

| Mlrd. so'm | Ulushi % da | O'sishi % da |
|---|---|---|
| 65,1 | 5,1 | 100,1 |
| Amudaryo | | |

| Mlrd. so'm | Ulushi % da | O'sishi % da |
|---|---|---|
| 240,9 | 18,8 | 102,9 |
| Taxiatosh | | |

| Mlrd. so'm | Ulushi % da | O'sishi % da |
|---|---|---|
| 85,6 | 6,7 | 101,7 |
| Beruniy | | |

| Mlrd. so'm | Ulushi % da | O'sishi % da |
|---|---|---|
| 81,4 | 6,4 | 117,5 |
| Taxtako'pir | | |

| | Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|---|
| Bo‘zatov | 8,3 | 0,6 | 124,9 |
| To‘rtko‘l | 119,5 | 9,3 | 106,3 |
| Qonliko‘l | 18,5 | 1,4 | 104,3 |
| Xo‘jayli | 71,0 | 5,5 | 79,4 |
| Qorao‘zak | 25,0 | 2,0 | 100,2 |
| Chimboy | 72,5 | 5,7 | 108,0 |
| Kegeyli | 32,7 | 2,6 | 138,5 |
| Shumanay | 28,5 | 2,2 | 100,7 |
| Qo‘ng‘irot | 72,6 | 5,7 | 103,9 |
| Ellikqal'a | 61,1 | 4,8 | 85,7 |
| Mo‘ynoq | 27,0 | 2,1 | 128,5 |
| Nukus sh. | 236,2 | 18,5 | 106,1 |

## Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

*2021- yilning yanvar-oktabr oylarida*

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 7734,4 mlrd. so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.

Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning umumiy ishlab chiqarishdagi tutgan ulushi 58,9 % ni tashkil etdi.

# Qoraqalpog‘iston Respublikasi shahar va tumanlar kesimida sanoat ishlab chiqarish hajmlari

*2021- yilning yanvar-oktabr oylarida*

| Hudud | Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|---|
| Qoraqalpog‘iston Resp. | 13130,9 | 100 | 105,8 |
| Nukus t. | 240,4 | 1,8 | 100,3 |
| Amudaryo | 410,7 | 3,1 | 111,2 |
| Taxiatosh | 1828,4 | 13,9 | 123,5 |
| Beruniy | 333,4 | 2,5 | 110,5 |
| Taxtako‘pir | 170,5 | 1,3 | 103,4 |
| Bo‘zatov | 98,8 | 0,8 | 115,6 |
| To‘rtko‘l | 358,3 | 2,7 | 109,1 |
| Qonliko‘l | 261,1 | 2,0 | 121,8 |
| Xo‘jayli | 297,3 | 2,3 | 84,7 |
| Qorao‘zak | 256,5 | 2,0 | 94,1 |
| Chimboy | 215,2 | 1,6 | 128,5 |
| Kegeyli | 189,8 | 1,5 | 85,4 |
| Shumanay | 146,5 | 1,1 | 108,1 |
| Qo‘ng‘irot | 576,1 | 4,4 | 107,4 |
| Ellikqal'a | 307,0 | 2,3 | 106,5 |
| Mo‘ynoq | 161,1 | 1,2 | 111,1 |
| Nukus sh. | 7279,8 | 55,5 | 108,6 |

## Qoraqalpog‘iston Respublikasi hududlari kesimida ishlab chiqarish fizik hajm indeksi, iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarishning o‘sish sur‘ati *% da*




Respublika sanoat ishlab chiqarish fizik hajm indeksining o‘sishshini, Chimboy (2020- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan 128,5 %), Taxiatosh (123,5 %), Qonliko‘l (121,8 %), Bo‘zatov (115,6 %) Amudaryo (111,2 %) hamda Mo‘ynoq (111,1 %) tumanlarida sanoat ishlab chiqarish hajmlari fizik hajm indeksining sezilarli darajada o‘sganligi bilan izohlashimiz mumkin.

## Qoraqalpogʻiston Respublikasi jami sanoat mahsulotlari hajmida hududlarning ulushi, % da

Respublika sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng koʻp ulush Nukus shahri (Respublika sanoat ishlab chiqarish hajmining 55,5 %), Taxiatosh (13,9 %), Qoʻngʻirot (4,4 %), Amudaryo (3,1 %), Toʻrtkoʻl (2,7 %), Beruniy (2,5 %), Xoʻjayli va Ellikqal’a (2,3 %), Qoraoʻzak hamda Qonlikoʻl (2,0 %) tumanlari hissasiga toʻgʻri kelmoqda. Eng past koʻrsatkich esa, Boʻzatov (0,8 %), Shumanay (1,1 %) hamda Moʻynoq (1,2 %) tumanlariga toʻgʻri kelmoqda.






Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Nukus shahrida (22354,6 ming soʻm) va Taxiatosh tumanida 24415,6 ming soʻm) oʻrtacha Respublika darajasi koʻrsatkichidan (6797,9 ming soʻm) ancha yuqoriligini koʻrsatmoqda.

Respublika boʻyicha aholi jon boshiga iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 1152,1 ming soʻm boʻlgani holda, Taxiatosh tumanida 3614,9 ming soʻmni, Taxtakoʻpir tumanida 2451,2 ming soʻmni, Shumanay tumanida 2272,0 ming soʻmni va Nukus shahrida 1483,2 ming soʻmni tashkil etdi.

# Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan sanoat mahsulotlari va iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish

*2021- yilning yanvar-oktabr oylarida, ming so‘m*

| | Sanoat mahsulotlari | Iste’mol mahsulotlari |
|---|---|---|
| Qoraqalpog‘iston Resp. | 6797,9 | 1152,1 |
| Nukus t. | 4682,5 | 840,8 |
| Amudaryo | 2027,8 | 750,1 |
| Taxiatosh | 24415,6 | 3614,9 |
| Beruniy | 1705,4 | 743,8 |
| Taxtako‘pir | 4214,6 | 2451,2 |
| Bo‘zatov | 4537,7 | 506,5 |
| To‘rtko‘l | 1637,3 | 837,6 |
| Qonliko‘l | 5028,5 | 524,3 |
| Xo‘jayli | 2385,2 | 1029,9 |
| Qorao‘zak | 4809,0 | 1061,4 |
| Chimboy | 1896,4 | 1043,3 |
| Kegeyli | 2588,8 | 720,9 |
| Shumanay | 2585,0 | 2272,0 |
| Qo‘ng‘irot | 4367,8 | 1030,5 |
| Ellikqal'a | 1885,5 | 971,9 |
| Mo‘ynoq | 4949,5 | 960,3 |
| Nukus sh. | 22354,6 | 1483,2 |

**Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi**

*2021- yilning yanvar-oktabr oylarida, % da*

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 2818,1 mlrd. so‘mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 21,5 % ni tashkil etdi.

Shahar va tumanlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Mo‘ynoq va Shumanay tumanlarida (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100,0 %), Kegeyli (86,5 %) hamda Xo‘jayli (85,6 %) tumanlarida kuzatildi.






Respublikamiz shahar va tumanlar kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni ko‘rsatdiki, Nukus shahriga (7,2 %), Taxiatosh (12,7 %) Qonliko‘l (16,9 %), hamda Bo‘zatov (20,4 %) tumanlarida sanoat ishlab chiqarish hajmidagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hududlarda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.

## <u>Respublikada faoliyat ko‘rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari</u>

*(2021- yil 1- noyabr holatiga ko‘ra)*

Bugungi kunda respublikada 3301 ta sanoat korxonalari faoliyat ko‘rsatmoqda, shundan 1651 tasi (faoliyat yuritayotgan korxonalar umumiy sonining 50,0 %) Nukus shahriga 687 tasi (20,8 %), To‘rtko‘l 356 tasi (10,8 %), Beruniy 309 tasi (9,4 %), Amudaryo 299 tasi (9,0 %) tumanlariga to‘gri kelmoqda.




2021- yil yanvar-oktabr oylarida respublikada 669 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etildi, shulardan 366 tasi (jami yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari hajmidagi ulushi 54,7 %) Nukus shahrida 123 tasi (18,4 %), Amudaryo 73 tasi (10,9 %), Ellikqal'a 67 tasi (10,0 %), Beruniy 53 tasi (7,9 %), To‘rtko‘l 50 tasi (7,5 %), tumanlarida tashkil etildi.